
O'zbekiston tumanida yiliga 600 ming tonna sement ishlab chiqariladi

O'zbekiston tumanida yiliga 600 ming tonna sement ishlab chiqarish quvvatiga ega "Turon Eko Sement Group" korxonasi ishga tushadi. Ushbu sanoat ob'yektini 2019 yilning mart oyida foydalanishga topshirish rejalashtirilgan. Hozir qurilish ishlari davom etmoqda. Mazkur loyihaga 100 milliard so'm mablag' sarflanadi. Bu mablag'ning 74 milliard so'mi "Aloqabank" aksiyadorlik tijorat banki Qo'qon filiali krediti hisobiga, 26 milliard so'mi korxonada direktori mablag'i hisobiga moliyalashtirildi. Loyihaning dastlabki bosqichida 250 ta yangi ish o'rnini yaratiladi.

"2018 yil yanvar oyida boshlangan qurilish ishlarining hozirga qadar 30 foizi amalga oshirildi, - dedi korxonada direktori Avaz Turdiyev. - Korxonada to'la quvvat bilan ishlay boshlasa, 600 nafar yigit-qizning bandligi ta'minlanadi".

Ma'lumot uchun: ushbu sanoat ob'yekt "Turon kapital building" qurilish tashkiloti tomonidan barpo etilmoqda. Hozir qurilishda 180 kishi mehnat qilmoqda.

Manba: [TURON24](#)

2018-10-03 20:02:42